

TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR XALQARO XUSUSIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

Inatov Sherzod Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

Annotatsiya

Transmilliy korporatsiyalar (TKK) ning xalqaro xususiy huquq doirasidagi o'rni va huquqiy maqomini tahlil qiladi. Maqola TKKlarning global iqtisodiyotdagi ahamiyatini, ularning bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritishini va shu jarayonda yuzaga keladigan huquqiy muammolarni o'rganadi. Xalqaro xususiy huquq va TKKlar o'rtasidagi munosabatlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Transmilliy korporatsiya, Xalqaro faoliyat ko'lami, Yagona boshqaruvning mavjudligi, Huquqiy mustaqillik.

ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫЕ КОРПОРАЦИИ КАК СУБЪЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЧАСТНОГО ПРАВА

Инатов Шерзод Шухрат ўғли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация:

Анализируется роль и правовой статус транснациональных корпораций (TKK) в рамках международного частного права. В статье рассматривается значение ТКС в мировой экономике, их функционирование в ряде стран, а также правовые вопросы, возникающие при этом процессе. Обсуждается взаимосвязь международного частного права и ТСС.

Ключевые слова: Транснациональная корпорация, Международная сфера деятельности, Наличие единого управления, Юридическая независимость.

Transmilliy korporatsiyalar (TKK) zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritadi va global savdo, investitsiya va mehnat bozorlarida ta'sir ko'rsatadi.¹ Xalqaro xususiy huquq, TKKlar faoliyatini tartibga solishda asosiy ahamiyatga ega bo'lib, huquqiy jihatdan xorijiy aktivlarga

¹ McKenzie, J. A. (2001). Multinational Corporations and International Law. International Journal of Law and Management.

ega bo‘lgan, operatsiyalarining kamida 1/4 qismini mamlakat tashqarisida, o‘zi ro‘yxatga olingan chet mamlakatda amalga oshiradigan yirik korporatsiya sifatida tariflanadi.² Tashkiliy jihatdan bosh kompaniya asosiy kapitalining sho‘ba korxonalar kapitalida qatnashuvi tamoyiliga asoslanadi. Ushbu korporatsiyalar ishlab chiqarish, marketing, sotish, tadqiqot va ishlanmalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli operatsiyalarni amalga oshirish uchun turli mamlakatlarda sho‘ba korxonalar, filiallari yoki filiallarini tashkil qiladi. TMKlar milliy chegaralaridan oshib ketish va jahon iqtisodiyotida muhimrol o‘ynash qobiliyati bilan ajralib turadi.³ Ular ko‘pincha turli global ta‘minot zanjirlariga, ko‘p millatli ishchi kuchiga va turli bozorlarda sezilarli ishtirokga ega bo‘lib ularni xalqaro biznes landshaftining asosiy o‘yinchilariga aylantiradi.

Xalqaro xususiy huquq subyektlarining subyektliligini belgilashning asosiy jihatlardan bir bu ularning faoliyatida chet elementining mavjudligi hisoblanadi. Xususan, mulkiy munosabatlarga chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqi subyekti sifatida nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar ham qatnashishlari mumkin.⁴ Bu turadagi (TK) larning xususiy huquq subyekti sifatida etirof etilish uchun ular yuridik shaxs sifatida biron-bir davlatda ro‘yxatga olingan (tuzilgan) bo‘lib, boshqa davlatlarda esa ular ko‘pgina filial, bo‘limlar, sho‘ba korxonalariga ega bo‘lishi kerak. Aslida, xalqaro xususiy huquq hisoblangan yuridik shaxslar uch guruhga bo‘linadi. Jumladan, **Birinchi** guruhga chet elda ko‘pgina filiallar, sho‘ba korxonalariga ega bo‘lgan milliy jamiyatlar, trest, kompaniyalar kiradi. Bu guruhning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tashkilotlar kapital bo‘yicha milliy faoliyati bo‘yicha xalqaro tashkilot hisoblanadi. **Ikkinchi** TMK guruhiga ham faoliyat, ham kapital bo‘yicha xalqaro hisoblanadigan trest va konsernlar kiradi. Yuqoridagi guruhlarning umumiyliigi shundan iboratki, ular yuridik shaxs sifatida biron-bir davlatda ro‘yxatga olingan (tuzilgan) bo‘lib, boshqa davlatlarda esa ular ko‘pgina filial, bo‘limlar, sho‘ba korxonalariga egadirlar. **Uchinchi** guruhga yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan kartel, sindikat, turli xil birlashmalar kiradi.⁵ Xalqaro xususiy huquq fanida yuridik

² Kidirbaev. A.M. Transmilliy kompaniyalar.

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/12545/8572>.

³ G Khusanova – Nordic. Transmilliy korporatsiyalar xarakteristikasi.

<https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/615>.

⁴ Xalqaro xususiy huquq Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b

⁵ Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Междунар. Отношения, 1994. – С 118



shaxslarning qaysi davlatga mansubligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy aloqalarning to'laqonli ishtirokchisi bo'lgan firma va tashkilotlar har vaqtda biron-bir davlat, uning huquq tartibot, qonun-qoidalariga bog'liqdir.⁶ Yuridik shaxsning bu muhim xususiyati xalqaro xususiy huquqda shaxsiy statut va yuridik shaxsning millati deb ataladi. Angliya va AQSHda domitsiliy, ya'ni yuridik shaxsning joylashgan joyi degan ibora ishlatiladi. Bu yerda, albatta, milliy yuridik shaxslar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, hech qanday qiyinchilik vujudga kelmaydi milliy yuridik shaxsga nisbatan milliy qonun normalari tatbiq qilinadi. Agar u yoki bu munosabat subyekti sifatida chet el yuridik shaxs bo'ladigan bo'lsa, u qaysi mamlakatga mansub, uning faoliyati qaysi mamlakatning qonunchilik normalari tomonidan tartibga solinishi, aynan yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilishi, tuzilishi, tugatilishi, uning huquqiy layoqati hajmi va h.k. to'g'risidagi savollarga javob topishga to'g'ri keladi. Bu masalalar yuridik shaxs mansub bo'lgan davlatning qonunchiligi (yuridik shaxs shaxsiy qonuni *lex societatus*) tomonidan tartibga solinishi lozimligi umum tan olingan. Yuqoridagilar bevosita transmilliy korporatsiyalarning xalqaro xususiy huquqiy subyekt ekanligini huquq asos e'tirof etiladi.

Transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi birlashish va qo'shib olishlar kompaniyalarning mehnat, ilmiy-texnik va moliyaviy resurslarini birlashtirish hisobiga raqobat afzalliklariga erishishga yo'naltirilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga iqtisodiy samaraga erishish, yangi bozorlarga kirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yangi aktivlardan foydalanish va boshqalarga ega bo'lish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi birlashish va qo'shib olishlar jarayoni jahon iqtisodiyoti hamda milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.⁷ Bu holat o'z navbatida transmilliy korporatsiyalarning barqaror faoliyat ko'rsatishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Transmilliy korporatsiyalar xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Chunki, aynan transmilliy korporatsiyalarning faoliyati orqali butun dunyo bo'ylab investitsiyalar oqimi harakat qiladi. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham keyingi yillarda

⁶ Лунц Л.А., Марышева Н.И., Садиков О.Н. Международное частное право: Учебник. – М.: Юрид. лит., 1984.

⁷ <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/615>.



dunyodagi etakchi transmilliy korporatsiyalar tomonidan investitsiyalar jalb etilmoqda. Bunday transmilliy korporatsiyalar jumlasiga, Coca Cola, Jeneral Motors, Mitsui, Hyundai, Nestle, Samsung va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar natijasida mazkur mamlakatning jahon xo'jaligi bilan aloqalari rivojlanib boradi. Bu holat esa, xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, transmilliy korporatsiyalar bir vaqtning o'zida, xalqaro investitsiya munosabatlari, eksport-import operatsiyalari, xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari hamda xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar rivojlanishiga o'zining ta'sirini o'tkazadi.⁸ Transmilliy kompaniyalarning milliy iqtisodiy afzalliklarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholi va sanoat uchun keng ko'lamda mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkoniyati;
- milliy iqtisodiyotga yangi fan-texnika yutuqlarining kirib kelishi; iqtisodiyotning turli tarmoqlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash;
- mamlakat mintaqalarida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;
- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- kadrlar malakasining oshishi; resurslardan samarali foydalanish tizimining vujudga kelishi;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilishini ta'minlash;
- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- kadrlar malakasining oshishi;
- resurslardan samarali foydalanish tizimining vujudga kelishi;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilishini ta'minlash;
- investitsion faollikni oshirish; yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati va boshqalar

Demak, Xalqaro xususiy huquq TK lar faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Bu huquq, avvalambor, shartnomalar, investitsiya huquqi va huquqiy masalalar bilan bog'liq.⁹ Xalqaro shartnomalar TK lar uchun muhim

⁸ Kidirbaev. A.M. Transmilliy kompaniyalar.

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/12545/8572>.

⁹ M.M. Boguslavskiy "Xalqaro xususiy huquq" 38 c



himoya va kafolatlarni ta'minlaydi. Shuningdek, TK lar o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun xalqaro arbitraj va mediatatsiya mexanizmlari ham mavjud. Yuqoridagiladan kelib chiqib TMKlarning qisqacha asosiy huquqiy belgilarni ko'rsatishimiz mumkin. Jumladan, **Xalqaro faoliyat ko'lami**, TMKlar bir necha davlat hududida faoliyat yuritadi va xalqaro miqyosda resurslarni taqsimlaydi; **Yagona boshqaruvning mavjudligi**, TMKlar, odatda, bitta markazdan boshqariladi va yagona korporativ strategiyaga ega bo'ladi; **Murakkab tashkiliy tuzilmani mavjudligi**, TMKlar ko'p darajali tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, unda bosh kompaniya va uning xorijiy filiallari, sho"ba korxonalari mavjud bo'ladi; **Huquqiy mustaqillik**, TMKning har bir tarkibiy qismi o'zi joylashgan mamlakatning huquqiy shaxsi hisoblanadi va shu davlat qonunchiligiga bo'ysunadi. Xulosa shuki, TMKlarning huquqiy maqomi xalqaro huquq va milliy huquq normalarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, TMKlar to'laqonli xalqaro huquq sub'ekti hisoblanmaydi, chunki ular davlat suverenitetiga ega emas va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega emas. Biroq, ular xalqaro xususiy huquq doirasida muhim huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. McKenzie, J. A. (2001). Multinational Corporations and International Law. International Journal of Law and Management.
2. Kidirbaev. A.M. Transmilliy kompaniyalar. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/12545/8572>.
3. G Khusanova – Nordic. Transmilliy korporatsiyalar xarakteristikasi. <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/615>.
4. Xalqaro xususiy huquq Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 34
5. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Междунар. Отношения, 1994. – С 118
6. Лунц Л.А., Марышева Н.И., Садиков О.Н. Международное частное право: Учебник. – М.: Юрид. лит., 1984.
7. <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/615>.
8. М.М. Boguslavskiy "Xalqaro xususiy huquq" darslik, 38 с.

